



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 225-228 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>



XALQARO STANDARTLARGA O'TISH SHAROITIDA IJARA BILAN BO'G'LIQ OPERATSIYALARNI HISOB SIYOSATIDA AKS ETTIRILISHI

Djumayeva Guzal Axtamovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-9371-9898

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarining hisob siyosati va unda ijara bilan bog'liq munosabatlarni aks ettirilishi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yoritib berilishi bo'yicha nazariy va amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Hisob siyosati, BHMS, MHXS, ijara, foydalanish huquqidagi aktivlar, ijara shartnomasi, ijarachi.

Аннотация: В данной статье даются теоретические и практические предложения по учетной политике предприятий и отражению в ней отношений связанных с арендой, на основе международных стандартов финансовой отчетности.

Ключевые слова: Учетная политика, НСБУ, МСФО, аренда, активы с правом пользования, договор аренды, арендатор.

Annotation: This article provides theoretical and practical proposals on the accounting policies of enterprises and the reflection of relations related to leasing, based on international financial reporting standards.

Keywords: Accounting policy, NAS, IFRS, lease, assets with the right to use, lease agreement, lessee.

Kirish.

Buxgalteriya hisobining xalqaro amaliyot bilan integratsiyalashuvi jarayoni axborot foydalanuvchilarini o'z vaqtida ishonchli haqqoniy ma'lumotlarga bo'lgan talabini yanada oshirmoqda. Axborot foydalanuvchilari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi ma'lumotlarini xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy hisobotlari va unga tushuntirish, ilovalari orqali oladilar.

Moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul mablag'lari harakatini haqqoniy taqdim etishi lozim. Haqqoniy taqdim etish operatsiyalarning, boshqa hodisalarning, aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta'riflari hamda tan olish mezonlariga muvofiq ro'yi-rost taqdim etishni talab etadi. Zarur bo'lganda qo'shimcha ma'lumotlarni yoritib berish bilan birga MHXSlarni qo'llash moliyaviy hisobotni haqqoniy taqdim etilishini ta'minlaydi.

Moliyaviy hisobotlardagi axborotlarning ishonchliligi, haqqoniyligini ta'minlashda hisob siyosati asos bo'lib hisoblanadi. Hisob siyosati korxonada uning xususiyatidan kelib chiqib, buxgalteriya hisobini yuritishning tartib-qoidalarini belgilaydigan hujjat hisoblanadi. Aynan ijara hisobini yuritish taribining hisob siyosatida yoritilishi xalqaro standartlarga o'tish, ular bilan bog'liq operatsiyalarning to'g'ri va ishonchli aks ettirilishiga olib keladi. Ijara munosabatlari bilan bog'liq majburiyatlar va aktivlarni baholashning yangi tartibini hisob siyosatida aks ettirishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi.

Hisob siyosatida ijara bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirilishini tadqiq qilishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot metodlaridan shuningdek, ilmiy adabiyotlarni o'rganish, xo'jalik faoliyatini kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi.

Hisob siyosatida foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlarni dastlabki baholash, ularning tugatish qiymati, adolatli qiymati, ijara(lizing) to'lovlarining batafsil yoritilishi, ijaraga beruvchi va ijarachining moliyaviy hisobotlarida ma'lumotlarning oshkor qilinishi, ularning sifati va ishonchliligiga ta'sir qiladi. Hisob siyosatiga qonun osti hujjatlarida quyidagi ta'riflar berilgan:

8-son "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" BHXSga asosan hisob siyosati - tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, asoslar, umum qabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlardir.

1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" BHMS (1998-yil 26-iyul, 2025-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotadi)ga asosan hisob siyosati - xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish uchun qo'llaydigan usullari, ularning prinsip va asoslari bilan birgalikdagi jamlamasi tushuniladi.

1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" BHMS (2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi) ga asosan hisob siyosati - tashkilot moliyaviy hisobotni tayyorlash va tuzish uchun foydalanadigan maxsus prinsiplarni, konvensiyalarni, tartib va amaliy yondashuvlarni ifodalaydi.

Milliy va xalqaro standartlarda hisob siyosatiga berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hisob siyosati korxonaning buxgalteriya hisobi ob'yektlari va ular hisobini yuritish metodlarini belgilab, tasdiqlanadigan hujjat hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy hisobotlarida ijara va u bilan bog'liq operatsiyalarni haqqoniy aks ettirishlari ularning ishonchliligini oshiradi va to'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi. 1-son "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" BHMS (2025-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)ga asosan hisob siyosatida xalqaro standartdan farqli ravishda quyidagi axborotlar yoritib berishligi aniq ko'rsatib o'tilgan: foydani aks ettirish, konsolidatsiyalash prinsiplari, faoliyat turlarini uyg'unlashtirish, birgalikdagi faoliyat, moddiy va nomoddiy aktivlarni aks ettirish va ularga eskirishi (amortizatsiya) hisoblash, jalb etilgan mablag'lar qiymatining kapitalizatsiya qilinishi va boshqa xarajatlar, kapital quyilmalar, investitsiya mulki, moliyaviy instrumentlar va investitsiyalar, ijara, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan bog'liq xarajatlar,

tovar-moddiy zaxiralar, soliqlar, jumladan kechiktirilgan soliqlar, rezervlar, xodimlarni saqlab turish, xorijiy valyutani o'tkazish, faoliyat turlarini, geografik segmentlarni va xarajatlarni segmentlar o'rtasida taqsimlash usulini belgilash, inflyatsiyani hisobga olish, davlat yordami.

Hisob siyosatini shakllantirishda korxonalar yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi, balki ahamiyatli bo'lgan barcha axborotlarni aks ettirishga ruxsat etiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ijara bilan bog'liq axborotlar hisob siyosatida aks ettirilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, xalqaro buxgalteriya hisobi standart talabi bo'yicha korxonalarining hisob siyosatiga kiritilishi kerak bo'lgan ijara hisobining tarkibiy elementlarini tahlil qilishni taqazo etadi.

Hisob siyosati barcha BHMSlarni qo'llash asosida moliyaviy hisobot tuzilishini ta'minlashi kerak bo'lgan korxonaning ichki hujjati hisoblanadi. Ammo amalda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar ayrim (MChJ, fermer xo'jaligi, oilaviy korxonalar, buxgalteriya hisobi avtomatlashtirilgan korxonalarda) korxonalarda ham hisob siyosati mavjud emas, borlari ham nomigagina tuzib qo'yilganligini ko'rihimiz mumkin. Amalda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ko'pchiligi ijaraga bino yoki transport vositalaridan foydalanadi yoki ijaraga jismoniy, yuridik shaxslarga beradi ammo ijara hisobining yuritilishi haqida korxonaning hisob siyosatida ko'rsatilmagan. Ayrim holatlarda esa faqatgina ijara hisobi qaysi schotlarda hisobga olinishi haqidagi ma'lumotlar bilan cheklanganini guvohi bo'lamiz. Biz o'rgangan korxonaning hisob siyosati uch yil muddatga tuzilgan va u korxonaga raxbari tomonidan tasdiqlangan. Unda ijara hisobi bilan bog'liq munosabatlari asosan asosiy vositalar tarkibida yoritilgan, ya'ni uzoq muddatli aktiv sifatida kirimi, chiqimi va amortizatsiyasi qaysi schotlarda aks ettirilishi ko'rsatilgan xolos.

Milliy va xalqaro standartlarda ijara hisobiga oid bir qancha farqli jihatlar mavjud. Bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- ijaraning tan olinishi;
- olinadigan aktivlar operativ yoki moliyaviy ijara turiga kiritilishi;
- operativ ijaraning minimal qiymati;
- ijara komponentlari to'g'risida;
- ijara shartnomasi muddatlarining uzaytirilishi;
- ularning baholanishi;
- ijaraga olingan aktivlarning va ular bilan bog'liq majburiyatlarning hisobotlarda aks ettirilishida farqlanishlar mavjud.

Korxonalar hisob siyosatida ijara bilan bog'liq munosabatlarni aks ettirishda ijara shartnomalarining nafaqat huquqiy shaklini, balki yuqorida sanab o'tilgan iqtisodiy ahamiyatini xalqaro standartlar asosida hisobga olishlari lozim.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro standartlarga muvofiq ijara operatsiyalarini hisob siyosatida yoritib berilishida quyidagilarni hisobga olishni tavsiya etamiz:

- Ijara shartnomasida ijara komponentlari aniq ko'rsatilishi va ularning identifikatsiyalanishini belgilash;

-Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlar va moliyaviy ijara (lizing)ga olingan asosiy vositalarni alohida guruhlash hamda operatsiyalarini hisobga olish uchun foydalanishni rejalashtirgan schotlarni ko'rsatish;

-Foydalanish huquqiga ega bo'lgan aktiv uchun buxgalteriya hisobi registrlarida amortizatsiya qachon hisoblanishi;

-Ijaraga olingan aktivlar uchun o'rtacha foydalanish muddati (yillarda) ko'rsatilishi;

- Ijaraga olingan aktivlarning baholanishini.

-Ijara shartnomasiga muvofiq belgilanadigan kelajakdagi lizing to'lovlarining joriy qiymati uchun diskont stavkasini aniqlashi, algoritmining tavsifini ko'rsatishi;

-Ijara shartnomalarini uzaytirish imkoniyati belgilangan bo'lsa, korxonaga ijaraga berish muddatini belgilashda qanday taxminlardan foydalanishini ko'rsatishi (lizing shartnomalarini uzaytirish va bekor qilish variantlarini iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan tahlil qilishni tavsiya qilinadi)

- Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq tayanch aktivni demontaj yoki siljitishga qilingan xarajatlar hisobi.

Shunday qilib, hisob siyosatining puxta, batafsil ishlab chiqilishi buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlaridan foydalanuvchilarni iqtisodiy ishonchli axborotlar bilan ta'minlaydi va oqilona qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Hisob siyosatini shakllantirishda ijara bitimlari, turli bo'limlar tomonidan tuziladigan shartnomalar shaklga nisbatan mazmunning ustuvorligini hamda korxonalar biznes jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel, № O'RQ-404. <https://lex.uz/acts/2931253>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Qarori. 2020 yil 24 fevral. PQ-4611-son.

3. 16-son "Ijara" MHXS

4. 8-son "Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar" BHXS

5. 1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" BHMS

6. 1-sonli "Moliyaviy hisobot va hisob siyosati" BHMS
<https://www.lex.uz/acts/7050497?ONDATE=01.01.2025%2000#7052455>

7. S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish Monografiya. 2018 y. "O'zbekiston" 2018 yil, - 119 b

8. G.A.Djumayeva. Ijaraga olingan foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlar hisobini takomillashtirish. // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. 2024, 4 (maxsus son), 197-205

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

